

A.A. HAYDAROV

**TILLAR O'QITISH METODIKASI
VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

(O'QUV QO'LLANMA)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

A.A. HAYDAROV

**TILLAR O'QITISH METODIKASI VA
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
(O'QUV QO'LLANMA)**

5120100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (INGLIZ)

5111400 – XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (INGLIZ)

**“Durdon” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO'K 908(575.1)(075)

26.89ya7

H 17

Haydarov, A.A.

Tillar o'qitish metodikasi va ta'lif texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / A.A.Haydarov .-Buxoro : "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. -200 b.

KBK 26.89ya7

"Tillar o'qitish metodikasi va ta'lif texnologiyalari" fani oliy ta'lifning 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish va 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) ta'lif yo'nalishi III bosqich bakalavriat talabalari uchun mo'ljalangan bo'lib, bu fan talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan turli ta'lif muassasalarida o'qituvchi sifatida faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyulda tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzilgan.

Mas'ul muharrir:

Z.I.Rasulov, Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasи mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

G.N.Qurbanova, Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasи dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

F.M.Hajieva, Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasи
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug'iga asosan
nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 166-293.**

ISBN 978-9943-8284-9-0

KIRISH

Mamlakatimizda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ 1875-sonli hamda “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ 5117-sonli qarorlarining qabul qilinganligi hozirgi kunda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzlusiz o’rganishni tashkil qilish, zamonaviy o’quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydala-nib, chet tillarni o’rgatish hamda o’rganilgan bilim, ko’nikmalarni mustaqil ravishda amalda qo’llashga o’rgatish chet tili o’qituvchisi zimmasiga katta mas’uliyat yukladi. Ushbu qarorlar ijrosi o’qituvchidan nafaqat talabalarga dars berishni, balki talabalarning qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda fan bo’yicha o’quv-uslubiy materialarni takomillashtirish, mavjud adabiyotlar asosida uslubiy qo’llanmalar yaratish lozimligiga e’tibor qaratishni talab qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagagi «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ 4199-sonli qaroriga muvofiq, ushbu maktablarda ta’lim jarayoni xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o’quv rejali va dasturlari bo’yicha ingliz tilida amalga oshirilishi; «STEAM – ta’lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san’at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etilishi lozimligi belgilab berildi, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagagi 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o’qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori asosida, bo’lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlashda, innovatsion yondashuv va texnologiyalarni joriy etishni taqozo qilmoqda.

“Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” fani talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan turli ta’lim muassasalarida o’qituvchi sifatida faoliyat olib borishga tayyorlaydi. Fanning ***dolzarbli*** o’qituvchi uchun birlamchi hisoblanuvchi pedagogik ko’nikma va mahorat shakllanishi zaruriyati bilan belgilanadi. O’quv fanining asosiy mazmuni “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarida belgilangan vazifalar asosida tuzilgan.

Fanning *maqsadi* – talabani chet tili o'qituvchisi kasbiy faoliyatiga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat. Zamonaviy metodikaning asosiy muammolari bilan tanishtirish tillarni o'qitish metodikasi va ta'lif texnologiyalari fanining vazifasi sanaladi. Ushbu fan talabalarning amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqishga, asosiy kasbiy malakasining shakllanishiga: darsning ongli, tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlarini shakllantirish; mavzu asosida o'quv materialini rejaliashtirish; darsning rejasi va konspektini tuzish; savol va topshiriqlar tuzish, so'rov o'tkazish hamda bilimni baholash; o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish; hamkasblari va o'z darslarini tahlil qilishga qaratiladi.

Fanni o'zlashtirish jarayonida *bakalavr*:

- chet tilini o'qitishda pedagogik mohiyatning manbai, pedagogika tarixining asosiy bosqichlari, ushbu sohadagi yangi ilmiy yutuqlar borasida ma'lumotga ega bo'lishi;

- yoshga doir psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo'lishi;

- til o'rgatishda an'anaviy va yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini bilishi;

- ta'lif jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va qo'llay olishi;

- chet tili darsini an'anaviy va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borishi;

- dars berish jarayonida ta'lifning zamonaviy texnik vositalari bilan ishlay olishi;

Mazkur o'quv qo'llanma fanning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, shuningdek, talablaridan kelib chiqib, talabalarning xorijiy tillar o'qitishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, chet tili darslarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida tashkil etish tamoyillari, dars jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lif usullari va ulardan foydalanish mezonlari, shuningdek, xorijiy tilda talaffuzni, leksikani, grammatik materialni, tinglab tushunish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish va o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish hamda darsdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil qilishning kommunikativ texnologiyalarini mustaqil ravishda ham o'zlashtirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1-MAVZU. “TILLAR O’QITISH METODIKASI VA TA’LIM TEKNOLOGIYALARI” FANINING PREDMETI

REJA:

1. Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fanining nazariy asoslari
2. Tillar o’qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
3. Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fanining ilmiy tadqiqot metodlari

TAYANCH SO’Z VA IBORALAR:

ta’lim sistemasi, ta’lim metodi, ta’lim printsipi, ta’lim vositasi, metodik usul, ilmiy-tadqiqot metodlari, xronometrlash, ositsilografik,

Maktab bugungi kunda yoshlarni har tomonlama tarbiyalash. ularga fanlardan chuqur bilim berishi, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish, ularni estetik ruhda tarbiyalashi hamda xalq xo’jaligining turli sohalarda mehnat qilishga tayyorlashi lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili ham o’z hissasini qo’shamdi. Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fani chet tili bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda etakchi o'rinda turadi.

Metodika yunoncha “methodike” so’zidan olingan bo’lib, “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui” ma’nosini anglatadi. Pedagogik muloqotda “metodika” atamasining uchta ma’nosi bor.


1. o’quv predmeti; 2.metodik usullari yig’indisi; 3. ta’lim nazariyasi va maxsus fan.

Metodika fanining maqsadlari, mazmuni, metodik kategoriyalari, ilmiy tadqiqot metodlari, vositalari mavjud. Umumta’lim maktablari, kollej va litseylari o’qituvchilarini tayyorlash maqsadida tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fani o’z oldiga quyidagi **maqsadlarni** qo'yadi:

1. Bo'lajak mutaxassislarda tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fani bo'yicha keng nazariy zamin yaratish.
2. Talabalarda ta’limning printsip, metod, vositalarini samarali qo’llay olish ko’nikma va malakalarini hosil qilish.

Metodika yunoncha "methodike" so'zidan olingan bo'lib,
"biror ishlini maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui"
ma'nosisini anglatadi.


Metodika - chet til o'rgatish ilmi bo'lib,
chet tilini o'quv predmeti sifatida belgilaydi,
o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'rgatish va
o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi
Pedagogik muloqotda "metodika" atamasining uchta ma'nosi bor:



Chet tili o'qitish metodikasi, professor Mixail Vasilevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'lim maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Boshqacha aytganda, metodika chet til o'rgatish ilmi bo'lib, chet tilini o'quv predmeti sifatida belgilaydi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'rgatish va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtiradi va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

Chet tili o'qitish metodikasi - ta'lim maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir.

prof. M.V.Lyanoviskiy



Zamonaviy metodik qo'llanmalarda ushbu *fanning o'rganish predmeti* qilib, chet til vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish

belgilanadi. N.L.Bim – metodikaning asosiy ob'ektiga o'quv fanlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi dastur, darslik, o'quv qo'llanmalar va o'qitish jarayonining tashkiliy shakllarini kiritadi. Uning fikricha har bir fanning o'z ob'ekti bo'lib, uni o'zining nuqtai nazaridan o'rganadi. ***Ob'ekt*** deganda – *kimlarni o'qitish* tushuniladi. Metodika fani 3 yirik mavzuni o'rganadi: a) Ingliz tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari, b) ingliz tili nutq faoliyatining asosiy turlari va v) o'rta maktablarda ingliz tili o'qitish jarayonini tashkil qilish.

Fanning ***nazariy asosi*** o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ▲ Hozirgi davr chet tili o'qitish mifikasining asosiy qismlarini yoritish va uning asosida talabalarga ta'lim berish;
- ▲ Talabalarga chet tili o'rgatishning ilg'or g'oyalarni tanishtirish;
- ▲ Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qism, vositalarini yoritish;
- ▲ O'qituvchilarining ilg'or tajribalarini o'rgatish;
- ▲ Seminar, amaliy mashg'ulotlar orqali mutaxassislik uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ▲ Bo'lajak o'qituvchilarini maxsus ilmiy – metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'z kasbi ustida mustaqil shug'ullanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash.

Chet tili o'qitish metodikasining asoschisi akademik Lev Vladimirovich Sherbadir. Shuningdek bu sohada I.V.Raxmanov, A.A.Mirolyubov, V.S. Setlin, V.D.Arakin, S.F.Shatilov, N.I.Gez, G.V.Rogova, I.A.Bim va boshqalar maxsuldar ishlashdi. O'zbekistonda o'zbek maktablarida chet tillar o'qitish xususiyatini hisobga olgan ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, dasturlar va darsliklar yaratilgan. Chet tili o'qitish metodikasining o'ziga xos shug'ullanish mavzusi, tizimi, ob'ekti, ilmiy tadqiqot metodlari, metodik tushunchalari va metodologik asosga ega.

Metodikadagi asosiy tushunchalar. Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: *ta'lim sistemasi*, *ta'lim metodi*, *ta'lim printsipi*, *ta'lim vositasi*, *metodik usul*.

Pedagogika vogeligi hodisalarini sistemali-strukturali yo'nalishda o'rganish munosabati bilan «ta'lim sistemasi» atamasi keng tarqaldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-dekabr 2012 yil PQ-1875 - sonli "Chet tillarini o'rganishni yanada takomillashtirish" qarori asosida tuzilgan qo'llanmalar.
2. O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti. Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.
3. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology-Т.: 2015.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.- Т.: O'qituvchi, 2012.
3. Ахмедова Л.Т., Нормуратова В.И. Teaching English Practicum/ Практикум по методике преподавания английского языка - Т.: 2011.
4. Хошимов Ў., Ёқубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси - Т.: 2013
- 5.Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. - Т.: 2009.
6. Кўчибоев А. К. Чет тиллар ўқитишининг амалий методикаси. Самарқанд, 2012.
7. Zaripova R. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. Т.:O'qituvchi, 1986
8. Hoshimov О'. Н., Yoqubov I.Ya. Ingliz tili o'qitish metodikasi. -Т.: Sharq, 2003. -302
9. Ko'chiboev A., E.Iskandarov. Xorijiy tillarda muloqotga o'rgatishda Yangi pedagogik texnologiyalar. Samarcand, 2011.
10. Ko'chiboev A. Xorijiy tillarga o'rgatishning kommunikativ metodikasi. Samarcand, 2010.
11. Азизходжаев Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т.: 2000.
12. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro, 2001.
13. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent, 2000.

14. Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. The Council of Europe - Strasbourg, 2005.
15. Rogers and Richards. Approaches and methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
16. Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007.
17. Makhkamova G.T. Innovative Pedagogical Technologies in the English Language Teaching. Tashkent, 2017.
18. Xan S. Jo'rayev L. Inogamova A. Kids' English. Toshkent, 2014.
19. Peter Watcyn-Jones. Fun Class Activities. Games and activities for teachers. Pearson Educational Limited, 2000
20. Hadfield J. Beginner's communication games, Essex Longman, 1999.

АХБОРОТ МАНБАЛАРИ

1. www.gov.uz.-Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали
2. www.ziyonet.uz
3. <http://iteslj.org/>
4. <http://iteslj.org>
5. <http://www.teachingenglish.org>.
6. <http://www.teachermentors.com>
7. <http://www.inspiringteachers.com>
8. <http://teachnet.org>
9. <http://www.alt-teachercert.org>
10. <http://www.tv5.org/>
11. <http://www.rfi.fr/>
12. <http://lefeldubilingue.org/>
13. <http://www.cafepedagogique.net>
14. vocabularyprofile.com
15. www.google.es
16. www.marco.ele

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Kirish | 3 |
| 1-mavzu. “Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” fanining predmeti..... | 5 |
| 2-mavzu. Chet tili o’qitishning maqsad, tamoyillar va mazmuni..... | 14 |
| 3-mavzu. Chet tili o’qitish vositalari va mashqlar tizimi | 25 |
| 4-mavzu. Chet tillarni o’qitishda vazifalar va o’yinlarning roli | 37 |
| 5-mavzu. Chet tili o’qitishning yondashuv va metodlari | 46 |
| 6-mavzu. Chet tili o’qitishning zamonaviy ta’lim texnologiyalari.... | 55 |
| 7- mavzu. Interaktiv metodlar asosida chet tili o’qitish | 64 |
| 8-mavzu. Chet tillarni o’qitish metodikasining qisqacha tarixi..... | 74 |
| 9- mavzu. Kompetentsiya tushunchasi va turlari..... | 84 |
| 10- mavzu. Chet tili o’qitish jarayonini rejalashtirish | 97 |
| 11- mavzu. Talaffuzni o’rgatish. Talaffuzni o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar | 107 |
| 12-mavzu. Leksikani o’rgatish. leksikani o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar | 116 |
| 13 - mavzu. Grammatikani o’rgatish. Grammatikani o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar..... | 130 |
| 14- mavzu. Tinglab tushunishni o’rgatish. tinglab tushunishni o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar..... | 142 |
| 15-mavzu. Gapirishni o’rgatish. gapirishni o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar | 153 |
| 16- mavzu. O’qishni o’rgatish. O’qishni o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar | 161 |
| 17-mavzu. Yozuvni o’rgatish. yozuvni o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar | 167 |
| 18- mavzu. Chet tilni o’rgatishda baholash | 176 |
| Glossariy | 185 |
| Tillarni o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari fanidan testlar to’plami..... | 191 |
| Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati..... | 196 |



ISBN 978-9943-8284-9-0

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-8284-9-0.

9 789943 828490